

O'ZBEKISTONDA KANDAKORLIKNING SHAKILLANISH VA PIVOJLANISH BOCQICHLARI

Kamoliddin Bexzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn inistituti Amaliy sana't fakulteti, Amaliy bezak kafedrası dotsenti, Jonieva Iroda Yoqubovna

Annotatsiya

Maqolada o'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlik haqida so'z yuritilgan bo'lib, savdo-sotiqda qadimdan kandakorlik buyumlariga talab katta bo'lganligi, mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlari, idishlarni bezashda naqshlar va yozuvli bitiklardan keng miqyosda qo'llanilganligi, shuningdek, yurtimiz mustaqillikka erishganidan keyin ko'pgina sohalarga bo'lgani kabi xalq hunarmandchiligi, xususan kandakorlikni qayta tiklash va rivojlantirishda ham ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirilganligi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kandakorlik, qotishma, xomashyo, jez, gravyura, shabaka, xattotlik, texnologiya, asbob-uskunalar, ornament.

Annotation

The article talks about carving, one of the most common types of Uzbek folk decorative art, and the fact that there has been a great demand for carving items in trade since ancient times, local craftsmen made gold, silver, brass, copper and other metals. It was stated that they made various items, patterns and inscriptions were widely used in the decoration of dishes, as well as many positive works were carried out in the restoration and development of folk crafts, especially carving, as in many other fields after the independence of our country.

Key words: carving, alloy, raw materials, brass, engraving, grid, calligraphy, technology, equipment, ornament.

O'zbek xalq amaliy bezak san'atining eng keng tarqalgan turlaridan biri kandakorlikdir. Kandakorlik deganda metallardan yasalgan badiiy buyumlarga o'yib yoki bo'rtiq qilib naqsh ishlash tushuniladi. O'zbekiston hududida metallardan yasalgan badiiy buyumlar ishlab chiqarish qadimdan rivojlanib kelayotgan san'at bo'lib, bu san'at o'zining qadimiyligi bilan kulolchilikdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Savdo-sotiqda qadimdan kandakorlik buyumlariga talab katta bo'lgan. Mahalliy san'at asarlari qo'shni mamlakatlar san'atining eng yaxshi yutuqlari bilan boyib borgan. Mahalliy ustalar oltin, kumush, jez, mis va boshqa metallardan har xil buyumlar yasaganlar. Qadimgi va ilk o'rta asr kandakorligi asosan zarhallangan kumush buyumlarda o'z ifodasini topgan. XI asrdan boshlab kandakorlik mahsulotlarini mis

hamda mis qotishmalaridan tayyorlay boshladilar. Arxeologik topilmalardan eramizdan avvalgi III asr oxiri hamda II asr boshlarida birinchi (maxsus mis qotishmasi) to'g'nag'ichlar Misr, O'rtayer dengizi, Mesopatamiya, Hindiston, O'rta Osiyoda keng tarqalganligi aniqlangan. Bu badiiy metall buyumlari ishlashning ilk namunalari edi. To'g'nag'ichlarda kichik-kichik voqealar, hayvon va boshqa narsalar tasvirlangan. Farg'onada topilgan marosim qozoni 1 ming yillikning o'rtalarida kandakorlikda hayvonot uslubi rivoj topganligini isbotladi. III-VIII asrlarda O'rta Osiyoda kandakorlik juda yuqori darajada rivoj topgan. Qimmat baho metallardan hokimlar hamda a'yonlar uchun har xil nihoyatda chiroyli bezak buyumlari ishlatish odat bo'lgan. Qimmat baho metallardan hokimlar hamda a'yonlar uchun har-xil chiroyli bezak buyumlari ishlatilgan. Bu oltin yoki kumush buyumlarda to'y-tomosha, taxtga o'tirish marosimlari, dunyoviy mavzular, shikor va kurash manzaralari, mifologik hamda epik qahramonlar, hayotiy mavjudot, parranda va boshqa tasvirlarni ko'rish mumkin edi. Arxeologlarning topilmalari shuni ko'rsatadiki, arab istilosi davrigacha sug'd aholisi ro'zg'orlarida badiiy metall buyumlar keng tarqalganligi isbotlandi. Hayvon shakli ifoda etilgan mis naqshlar, ya'ni yovvoyi hayvonlar kallasi va boshqalar topilgan. III-XIII asrlarda qimmatbaho metallardan qilingan idishlar O'rta Osiyoning ko'pgina burchaklarida urf bo'lib qolgan edi. Oltindan juda ko'p narsalar ishlanar, binolarning bezaklariga oltin suvi yugurtirilar edi. Keyinchalik esa xomashyo sifatida birgina qimmatbaho metallarning o'zi kifoya qilmay hiyla arzon materiallar mis va uning turli qotishmalari ishlatildi. Qizil misdan har xil ko'zalar, dekcha (qozon)lar, idish-tovoqlar, jezdan va sariq misdan shamdonlar, poymonlar, oq mis hamda bronzadan ko'zalar, kir tog'oralar, katta-kichik piyola va shu kabi ro'zg'or buyumlari yasalar edi. XI asrning o'rtalarida O'rta Osiyo Xalq amaliy san'atida katta burilish bo'ldi. Kandakorlik tez sur'atlar bilan rivojlandi, mis va uning qotishmalaridan yangi-yangi buyumlar paydo bo'ldi, qorni sharsimon hamda bo'yniga naqsh solingan ko'zalar, yarim doira ketmonlar, siyohdonlar, hovoncha va boshqalar juda ko'p ishlatilar edi. Bu buyumlarning yuzalariga bo'rtma kandakorlik usulida naqsh ishlash kamayib borib, o'rniga o'yib naqsh ishlash (gravyura) urf bo'lib qoldi. IX-XII asrlarda kandakorlik san'atida ham katta yangiliklar bo'ldi. Idishlarni bezashda yozuvli naqshlar keng miqyosda qo'llanilgan. Qadah va omad, tansihatlik, baxt-saodat, farovonlik degan naqshli xattotlik yozuvlar "kufiy" va "nasx" usulida bitilgan. Bu yozuvli bezaklar shunday rivojlanib ketib juda mayda, juda nafis bo'lib, hattoki ularni o'qish qiyinlashgan. XIII-XIV asrlarda kandakorlar bezaklarga kumush va oltin iplarni qadab zeb berib, naqshlarni judayam nafis bo'lishiga harakat qilishgan. Samarqand shahrining Registon maydoni yaqinidan topilgan xazinalar, ya'ni oltmishdan ziyod turli tuman idishlar, piyolalar, ko'zalar, qopqoqlar, tagliular, qozonchalar kandakorlikning XIV-XV asr badiiy an'analari to'g'risida ma'lumot beradi. XIV asrga metalga badiiy ishlov berishda jiddiy siljish bo'ldi. Temur o'z davrida Xalq

hunarmand-chiligi rivojlanishiga katta e'tibor bergan. Temur va temuriylar avlodi hukmronlik qilgan davrda hunarmanchilik buyumlari ishlab chiqarish yuksak darajada rivojlangan. Bu davrda xalq amaliy san'atining barcha turlarida badiiy uslubning o'zgarishi bilan xarakterlidir. Metall buyumlarni bezash yanada takominlashdi. Buyumlar naqshlari yanada badiiylashgan, noziklashdi, mayda islimiy naqshlar, yozuvli naqshlar yanada ko'p ishlatilgan. Masalan, Ermitaj muzeyidagi shamdonlar, xalqa, yetti xil metalldan quyilgan qozonlar misol bo'la oladi. Shamdonlar sadaf suyak qadab ishlangan 93 eshiklar uchun qilingan nafis shabaka halqalar o'simliksimon gullari zaminida yasalgan. Bu yozuvlarda shamdonlarning ishlangan vaqti (1397 yil) va usta Izaaddin Isfaxoniy nomi bitilgan. Qozon o'simliksimon naqsh va yuksak badiiy husnixat yozuvi bilan naqshlangan. Bu afsonaviy qozon dunyoda yagona bo'lib, uni tabrizlik rixtagar Abdulaziz ibn Sharofiddin yasagan. Respublikamizdagi arxeologik qazilmalardan topilgan metall buyumlarda chetellik ustalar nomini uchratish mumkin. Bunga sabab Temur yurishlari vaqtida chetellardagi ustalarni ko'chirib Samarqandga olib keltirgan. Ispan elchisi Klavixoning esdaliklarida Amir qabulida va ziyofatida bo'lgan vaqtida ko'rgan ajoyib idishlarni yuksak darajada bajarilganligi haqida aytib o'tgan. O'sha davrlarda Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida yuqori sifatli va bejirim metall buyumlar ishlab chiqilgan. Buxoro va Xivadan Rossiya amaldorlariga sovg'a sifatida olib borilgan buyumlar, shuningdek O'rta Osiyo savdogarlari keltirgan hunarmandchilik buyumlari ichida oltin suvi yuritilgan gurzi, o'q, o'tkir tig'li qilichlar va qilich qinlari va boshqa buyumlar o'sha davrdagi ustalarning mahoratini ko'rsatgan. XVIII-XX asrlarda kandakorlik yaxshi rivojlangan bo'lib, Buxoro, Qo'qon, Xiva, Samarqand, Shaxrisabz, Qarshi hamda Toshkent shaharlari kandakorlik buyumlari chiqariladigan markazlar bo'lgan. Zodagonlar xonadonlari naqsh tushirilgan idishlar bilan bezatilgan. Bu buyumlar xonadon sohibining davlatmandligini namoish qilib turgan. XIX asr o'rtalariga kelib (vopurushlar) olib-sotarlar paydo bo'lgan. Vopurushlar hunarmadlardan buyumlarni arzon bahoda sotib olib, savdogarlarga yoki bozorga olib borib oshirilgan narxda sotishgan. Ular xalq amaliy san'ati ustalari tayyorlagan gilam, oftoba, quticha, qilich, har xil idish va boshqa hunarmandchilik buyumlarni xalqqa yetkazib berishda savdo vositachilari vazifasini bajargan. Buxoroning XIX asr ikkinchi yarimi — XX asr boshlaridagi kandakorligi ayniqsa qiziqarli. Buxoro ustalarining yaratgan buyumlari shaklining risoladagidek nafisligi, nisbatlarining mumtoz tarzidagi muvozanati, odatda, chuqur o'yish texnikasi yordamida bajarilgan bezak ijrolarining barqarorligi bilan ajralib turadi. Buxoro kandakorligi boshqa maktablarga qaraganda kam o'zgargan va ko'pgina qadimiy shakl hamda an'anaviy bezaklarni saqlab qolgan. Buyumlar turi nechog'li xilma-xil bo'lmasin, Buxoro kandakorligi o'zining oddiyliги va shakllarining qat'iyliги bilan ajralib turadi. XX asr boshlariga kelgandagina Buxoro ustalari ho'l meva vazalari, choynak va shu kabi chetdan keltirilgan fabrika usulida ishlangan buyumlarga taqlidan

kumushdan yangi shakldagi buyumlar ishlab chiqara boshladilar. Buxoro kandakorligida nisbatan erkin fon, odatda, shtrix soyasida qolib ketardi. Buxoro buyumlaridagi naqshlar Qo‘qonnikidan ancha yirik va Toshkentnikidan nafisroqdir. Buxoro bezagiga tekis, anchagina keng, ustalar “kundal” deb yuritadigan xoshiya chiziqlar alohida ta’sirchanlik kasb etadi. O‘simlik bezagi nafis va ravshandir. Buxoro kandakorlari kalligrafik yozuvlardan maromida foydalanib, u bilan buyumlarning ayrim qismlari – ko‘za tanasi bo‘yni bandlari, patnislarning keng tub qismini va hokazolarni bezatishgan. Buxoro mintaqaviy kandakorlikning yirik markazi edi va bu erga Markaziy Osiyoning boshqa mintaqalaridan o‘z malakalarini oshirish uchun ustalar kelishgan. XIX asr Buxoro kandakorligi mohir san‘atkorlarining nomlari tarix sahifalaridan o‘rin olgan: Salohiddin, Mirza, Sharof, Hakim Buxoriy, Rustam Muhammad Rizo. XX asr boshlarida Buxoroda tadqiqotchilarning ma‘lumotiga qaraganda, 600 ga yaqin miskarlar bo‘lib, shulardan 50 nafarigina yuksak badiiy ijod qilganlar. Mir Sharif, Muqaddam Ma‘zum, Muhammad Hasan, Oллоhyor Yo‘ldoshev va boshqalar shular jumlasidandir. O‘rta Osiyoning Rossiyaga qo‘shilishi fabrika mollarining kelishi hamda ularni shu erda ishlab chiqarilishi mahalliy hunarmandlar ishiga ta’sir etdi. Shuning uchun ham hunarmandlar xizmatiga bo‘lgan ehtiyoj pasayib, hunarmandchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish kamayib bordi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin ko‘pgina sohalarga bo‘lgani kabi xalq hunarmanchiligini qayta tiklash va rivojlantirish sohasida ham ko‘pgina ijobiy ishlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasi xalq ustalari, hunarmandlari, va musavvirlarining “Hunarmand” uyushmasi va uning viloyat boshqarmalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31-martdagi “Xalq amaliy san‘ati hunarmandchiligini rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 1741-sonli farmoniga asosan tashkil etilgan. Ushbu qarorga binoan uyushma a‘zolari daromad solig‘idan ozod etilganlar. 2013 yil 26-dekabrda PF 4589-sonli farmoniga asosan hunarmandlarga berilgan imtiyozlar 2017 yil 1-yanvarga qadar uzaytirildi. 2010-2011 yillarda viloyatimizning barcha tuman va shaharlarida “Hunarmand” bo‘limlari tashkil etildi. Uyushma ijodiy tashkilot bo‘lib, uning asosiy vazifalari va maqsadi unut bo‘lgan xalq hunarmandchilik turlarini qayta tiklash, mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, xalq amaliy san‘ati an‘analari asosida faoliyat yuritayotgan xalq ustalari, hunarmandlar, amaliy san‘at mutaxassislari, ijodkor yoshlar faoliyatlarini muvofiqlashtirish, ular o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va erkin raqobat muhitini yaratish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarni amalga oshirish, ma‘naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, iqtidorli bolalar va yoshlarni moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish, ijtimoiy himoyalash, hayriya va homiylik faoliyatlarini amalga oshirish. Xalq amaliy san‘ati an‘analarini saqlagan holda, yuqori saviyadagi xalq amaliy san‘ati buyumlari namunalarini yaratish va qayta tiklashni o‘rgatish, ularni

tarbiyalash uchun, belgilangan tartibda “Ustoz-shogird” maktablarini tashkil etish, hunarmandlarni kichik mexanizatsiya, asbob-uskunalar, xom-ashyo bilan ta’minlash, hunarmandlar ishlarini xorijga reklama qilish, kim ochdi savdolarini tashkil etish, respublika va xorij ommaviy axborot vositalari orqali turli reklama roliklari, ko’rsatuv va radio eshittirishlar tashkil etish, usta hunarmandlar faoliyatini yorituvchi bukletlar, kataloglar kabi tarqatma materiallar chop qilish, hunarmandlar haq-huquqlarini bilishlari hamda qonunlardagi yangiliklar haqida seminarlar o’tkazish, ustalarni davlat mukofotlariga tavsiya etish ustaxonalarni ta’mir va qurishga ko’maklashishdan iborat. Bugungi kunda “Hunarmand” boshqarmasi va uning tuman, shahar bo’limlarida 1068 nafar atrofida hunarmandlar ro’yxatdan o’tgan, shularning 535 nafarini xotin-qizlar tashkil qiladi. Buxoro shahrida “Hunarmand” boshqarmasi va uning bo’limlari viloyatdagi milliy hunarmandchilik yo’nalishlari mavjud bo’lgan 8 ta kasb-hunar kollejlari (hozirda ixtisoslashtirilgan maktablar)da bo’lib, 2013-2014 o’quv yillarining 372 nafar bitiruvchilariga milliy hunarmandchilikka Davlatimiz tomonidan qaratilayotgan e’tibor, hunarmandlarga berilayotgan imtiyozlar, a’zo bo’lish tartiblari va boshqa masalalarda tushuntirish ishlarini amalga oshirib kelmoqdalar. Bugungi kunda kandakor usta hunarmandlarimiz qadimiy kandakorlik texnologiyasi va ornamentlarini tiklab, judayam nafis va chiroyli kandakorlik mahsulotlari tayyorlamoqdalar. Ular yuksak mahorat bilan yasagan hunarmandchilik buyumlari ko’pgina xalqaro ko’rgazmalarda nufuzli o’rinlarni egallab, o’zbek hunarmandchiligini dunyoga mashhur etib kelishmoqda.

Adabiyotlar:

- 1.A. Abdullaev, D.Faxretdinova, A.Hakimov. Ma’danga bitilgan qo’shiq. - T.1986.
2. Хворостов А.С. Чеканка, инкрустация резьба по дереву: 2-е изд-во доп. и перереб.-М:Просвещение,1985.
3. Мусинова А.С. Возрождение бухарской чеканки по меди. Международный научный журнал «Интернауека» (Украина). 2017. 37-39
4. Мусинова А.С. Развитие художественно-творческих способностей на основе изучения и освоения различных техник и материалов. Издательство: Общество с ограниченной ответственностью "Издательство Молодой ученый" (Казань) ISSN: 2072-0297eISSN: 2077- 8295
<https://elibrary.ru/item.asp?id=26425217>